

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Alimov Baxodir G'anijanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Ilmiy mahlahatchi: Fayzullayev J.S.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, i.f.d(DS)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda transport infratuzilmasi rivoji yo'lida amalga oshiriladigan islohotlar, hamda uning rivojlanish tendensiyasini infratuzilmaning asosiy elementlari bo'lmish avtomobil yo'llari, temir yo'llar va havo transportining ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *transport infratuzilmasi, avtomobil yo'llari, temiryo'llar, havo transporti.*

Abstract: *In this article, a statistical analysis of the reforms carried out in the direction of the development of transport infrastructure in our country, as well as the trend of its development, the indicators of highways, railways, and air transport, and the main elements of the infrastructure are presented.*

Keywords: *transport infrastructure, highways, railways, air transport.*

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va mintaqaviy integratsiyani ta'minlashda transport infratuzilmasini rivojlantirish hal qiluvchi omiliga aylandi. Yirik xalqaro savdo yo'llari kesishmasida joylashgan, dengizga chiqa olmaydigan davlat sifatida O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati uning transport tarmoqlari sifati va samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Avtomobil yo'llari, temir yo'llar va havo yo'llari ichki aloqalarni osonlashtirib qolmay, balki mamlakatni Markaziy Osiyodagi asosiy tranzit markazi sifatida joylashtirish imkonini beradi.

Respublikamizda transport infratuzilmasining tubdan yangilanishiga qaratilgan davlat siyosati izchillikda davom ettirilmoqda. Xususan, xalqaro transport yo'laklarini kengaytirish, yo'l-transport tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi logistika zanjirini samarali tashkil etish hamda eng asosiysi eksport-import hajmini ko'paytirishga xizmat qilmoqda, hamda O'zbekistonning geologik joylashuvi yuzasidan strategik ahamiyatini oshirib, uni mintaqaviy va xalqaro transport tizimining ajralmas bo'g'iniga aylantirishga zamin yaratmoqda.

Asosiy qism. Transport infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari haqida so'z yuritishdan avval qisqacha "transport infratuzilmasi" tushunchasi haqida to'xtalib o'tamiz. Transport infratuzilmasi transport tizimi tarkibi hisoblanib, germaniyalik olim S. Schukmen o'z tadqiqotida "transport infratuzilmasi" atamasiga quyidagicha ta'rif



bergan. **Transport infratuzilmasi** – tashish jarayonining tez va erkin bajarilishini ta'minlaydigan moddiy-texnik va tashkiliy shart-sharoitlar majmuidir[2]. **Transport infratuzilmasi** – jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini ta'minlashga hamda qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan barcha transport tuzilmalari, moddiy-texnik tizimlari yig'indisi[3]. Ushbu izohlardan xulosa qilgan holda davlatamiz dengizga chiqa olmasligini inobatga olib, bizdagi transport infratuzilmasining eng asosiy bo'g'inlari sifatida avtomobil yo'llari, temiryo'llar va havo transportini olishimiz mumkin.

2014-2023 yillar mobaynida jami avtomobil yo'llari va temiryo'llari uzunliklari, mamlakat bo'ylab yuk va yo'lovchi tashish va bunda havo transportinig ulushi ko'rsatkichlari[5].

(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tayyorladi)

1-jadval

	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Avtomobil yo'llari uzunligi (ming km)	41990	42013	42035	42046	42052	42073	42290	42299	42307	42319
Temiryo'llar uzunligi (ming km)	5,7	5,70	5,80	6,10	6,20	6,20	6,20	6,10	6,10	6,20
Havo yo'li orqali yuk tashish(ming tonna)	125,1	131,1	132,2	156,9	123,5	119	219	303,5	322,8	226,3
Havo yo'li orqali yo'lovchi tashish(ming kishi)	344,1	369,6	315,9	299,2	364,1	406,1	113,6	298,6	511,1	485,9
Umumiyyi yo'lovchi tashish(ming kishi)	5169,9	5380	5560,4	5679	5951,5	6025,1	5295,9	6029,7	6245,3	6483,7
Jami yuk tashish(ming tonna)	1000,4	1070,5	1132,5	1146,2	1243,0	1319,8	1366,7	1420,2	1420,9	1455,7

Ushbu jadvalda aks etgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu yillar mobaynida avtomobil yo'llarining umumiy uzunligida deyarli o'zgarish kuzatilmagan. 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 0.8% miqdordagi farqni ko'rishimiz mumkin. Temiryo'llar uzunligiga keladigan bo'lsak yillar mobayni judam kam miqdorda bo'lsada o'sidh kuzatilgan. Eng yaxshi o'sish ko'rsatkichini 2017 yil misolida ko'rishimiz mumkin: 5% dan yuqori. Mamlakatimizda mavjud 11ta xalqaro va bir nechta mahalliy aeroportlar orqali ushbu yillar mobaynida yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarida ham o'sishni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, yuk tashish hajmi ketma ket ikki yil pasayganini hisobga olmaganda 2020 yildan boshlab keskin oshgan. Yo'lovchi tashishdagi ulushi esa pandemiya davrida bir muncha salbiy ko'rsatkichlarni qayt etgan va 2022 yildan boshlab sezilarli ko'tarilgan. Respublikamiz tomonidan transport infratuzilmamizni yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida ushbu yillarda mamlakatimizda jami yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarida doimiy ijobiy natija kuzatilganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarorlari va farmonlari asosida avtomobil yo'llarini qayta ta'mirlash, temiryo'llarni elektrlashtirish, yangi aeroportlar qurish, xalqaro aviareyslarini ko'paytirish kabi loyihalar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-28-son qarori. Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyot va biznesning yuqori sifatli yuk tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, mamlakat tranzit salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish va istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishdan iborat.[1]. Ushbu konsepsiya misolida yaqin kelajakda davlatimiz tomonidan transport infratuzilmamizni sezilarli darajada yaxshilash maqsadi oldinga qo'yilganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijalari bo'yicha erishiladigan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar[1].

2-jadval

T/r	Ko'rsatkich va indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-y.	Rejalashtirilgan maqsad:					
				2025-y.	2026-y.	2027-y.	2028-y.	2029-y.	2030-y.
1.	Xalqaro yuk tashish hajmi (quvur transportidan tashqari)	mln tonna	59,6	63,7	68	72	76,9	83,8	119,2
2.	Tranzit yuk tashish	mln	13,9	14,6	15,2	16	17	18,1	22,0



	hajmi (quvur transportidan tashqari)	tonna							
3.	Transport va logistika xizmatlari eksporti	mlrd \$	1,88	2,09	2,27	2,54	2,81	3,1	3,5
4.	Transport infratuzilma sifati:								
	elektrlashtirilgan temir yo'llar ulushi	foiz	48	51	52,3	54	55,3	60,2	65
	o'tkazuvchanligi chegaralangan umumiy foydalanishdagi temir yo'l liniyalari uzunligining ulushi	foiz	15	14	13	12	11	10	9
	xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarining ta'mirtalab qismlari	foiz	24	22	20,5	19	17	16	15
	xalqaro aeroportlar yuk terminallarining yillik o'tkazuvchanlik quvvati	ming tonna	140	185	252	265	285	295	310

Transport infratuzilmasini rivojlantirish yulida davlatimiz o'z oldiga qo'yan ustuvor maqsadlardan birini yuqoridagi jadvalda qayd etilgan raqamlarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, xalqaro yuk tashish hajmini, transit tashishlar hajmini, transport va logistika xizmatlari eksportini, hamda xalqaro aeroportlar yuk terminallarning yillik o'tkazuvchanlik quvvatini joriy holatidan 2030 yilgacha deyarli ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Undan tashqari bugungi kunda elektrlashgan qismi 50 foizni tashkil etmaydigan jami temiryo'l liniyalarida elektrlashgan qismini 65 foizga yetkazish va xalqaro ahamiyatga ega yo'llarning ta'mirtalab qismini hozirgi 15 foizdan 9 foizgacha tushirish vazifalari ham ilgari surilgan. Maydoninig 95.1 foizi [6] quruqlikdan tashkil topgan davlatimiz uchun bunday ko'rsatkichlarga erishish davlatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim tayanch bo'lishi shubhasiz.

Xulosa. Bugungi kunda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi 42 371 km, umumiy foydalanishdagi temir yo'llar — 7 400 km, havo trassalari — 26 ming kmni tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak Respublikamizda bu ko'rsatkichlar yillar kesimida doim ijobiy tendensiyalarni namoyon qilib kelgan. Lekin avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 2014 yilga solishtirilganda temiryo'llar (29%)dan farqli



ravishda atiga 0.9% gagina o'zgargan, garchi har yili yuzlab kilometr yangi yo'llar qurilgani haqida eshitasak ham va biz buni deyarli o'zgarmagan deb qabul qilishimiz mumkin. Vaholangki avtomobil yo'llari deyarli quruqlikdan iborat, avtomobillar soni oxirgi 10 yillikda deyarli ikki barobar oshgan[5] davlat uchun transport infratuzilmasida jiddiy muammolar yuzaga kelishini anglatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-28-son qarori.
2. Schuckmann S. Analysis of factors influencing the development of transport infrastructure until the year 2030 — A Delphi-based scenario study // S. Schuckmann, T. Gnatzy, I. Darkow, H. Grach.—Technological Forecasting & Social Change. — 2012. — 79. — P. 1373–1387
3. Rudneva, L.N. Transportnaya infrastruktura regiona: ponyatiye i faktori formirovaniya / L.N. Rudneva, A.M. Kudryavsev // Rossiyskoye predprinimatelstvo. - 2013. - № 24 (246). - c. 139-144
4. www.lex.uz
5. www.siat.stat.uz.
6. www.wikipedia.com